

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha
YO'RIQNOMA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma (keyingi o'rinlarda – Yo'riqnoma) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o'rinlarda – Davlat aktivlari agentligi)ning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga ishga kirish istagida bo'lgan nomzodlarni tekshirish maqsadlari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilaydi.

2. Yo'riqnoma Davlat aktivlari agentligi direktori, hududiy boshqarma boshlig'i yoki idoraviy mansub tuzilma rahbari ish beruvchi hisoblangan boshqaruv lavozimlariga ishga kirish istagida bo'lgan nomzodlar (keyingi o'rinlarda – nomzodlar)ni tekshirishga tatbiq etiladi.

Davlat aktivlari agentligi tizimidagi texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bo'yicha tegishliligiga ko'ra Davlat aktivlari agentligi direktori, hududiy boshqarma boshlig'i yoki idoraviy mansub tuzilma rahbarining topshirig'iga asosan tekshirish o'tkazilishi mumkin.

3. Yo'riqnoma talablari asosida nomzodlarni tekshirish nomzod bilan mehnat shartnomasi tuzilgunga qadar, qonunchilikda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish belgilangan lavozimlar bo'yicha nomzodlar kelishilgunga qadar amalga oshiriladi.

4. Nomzodlarni tekshirish:

Davlat aktivlari agentligining markaziy apparati, "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJ va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan;

Davlat aktivlari agentligi va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining hududiy boshqarmalari, Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi hamda Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasida inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linma (xodim) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Quyidagilar ushbu Yo'riqnomaning maqsadlari hisoblanadi:

nomzod tomonidan taqdim etilgan o'zi haqidagi, uning kasbiy faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan mansabdor shaxslar bilan qarindoshlik va tijoriy aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish;

o'z lavozim majburiyatlarini halol, vijdonan, sifatli, puxta, beg'araz va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va Davlat aktivlari agentligining ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq bajarishga qodir bo'lgan jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish;

Davlat aktivlari agentligida lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli darajada bilim va tajribaga ega bo'lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyilligi bo'lgan, Davlat aktivlari agentligining obro'siga putur yetkazadigan, korrupsiya yoki boshqa xavflari mavjud bo'lgan nomzod yollanishi xavfini kamaytirish;

halol, vijdonan qonunga bo'ysunuvchi xodimlarni rahbarlik va moddiy javobgarlik lavozimlariga tanlash.

6. Mazkur Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari;

mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

nomzod – Davlat aktivlari agentligi tizimi tashkilotlarining bo'sh ish o'rniga talabgor bo'lgan jismoniy shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

xodim – Davlat aktivlari agentligi tizimi tashkilotlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

2-bob. Nomzodlarni tekshirish tartibi

7. Davlat aktivlari agentligining markaziy apparati, “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” AJ va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazida nomzodlarni tekshirishga qo‘yiladigan umumiy talablar va muddatlar quyidagilar:

inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas’ul tuzilma nomzod amaldagi qonunchilik va Davlat aktivlari agentligining ichki me’yoriy hujjatlarida ko‘zda tutilgan tartibda o‘tkazilgan tanlovning suhbat bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tganidan bir ish kuni ichida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga ushbu nomzodni tekshiruvdan o‘tkazish uchun so‘rovnoma yuboradi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi nomzodni tekshirish uchun so‘rovnoma hamda Yo‘riqnomaning 9-bandida nazarda tutilgan hujjatlar va ma’lumotlar olingandan besh ish kuni davomida nomzodni tekshirishni amalga oshiradi;

nomzodni belgilangan muddatda obyektiv – xolisona tekshirishning imkoniyati bo‘lmaganda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas’ul tuzilmani ogohlantirgan holda muddatni qo‘shimcha uch ish kuniga qadar uzaytirishi mumkin.

Nomzodni tekshiruvdan o‘tkazish uchun so‘rovnomada nomzodning shaxsiga oid ma’lumotlar, nomzod talabgor bo‘lgan lavozim va ushbu lavozimga qo‘yilgan malaka talablari ko‘rsatiladi.

Yo‘riqnomaning 9-bandida qayd etilgan ma’lumotlar taqdim etilmaganda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan nomzodni tekshirish amalga oshirilmaydi hamda bunda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan javobgarlik inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas’ul tuzilmaga yuklatiladi.

8. Davlat aktivlari agentligi va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining hududiy boshqarmalari, Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi hamda Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi nomzod belgilangan tartibda o‘tkazilgan tanlovning suhbat bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tganidan besh ish kuni ichida inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas’ul tuzilma (xodim) nomzodni tekshirishni amalga oshiradi.

Bundan nomzodni belgilangan muddatda obyektiv – xolisona tekshirishning imkoniyati bo‘lmaganda, tekshirish muddati qo‘shimcha uch ish kuniga qadar uzaytirilishi mumkin.

9. Tekshiruv o‘tkazishda quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga ko‘ra ishga qabul qilinayotganda talab qilinadigan hujjatlarning nusxalari (elektron shaklda ham bo‘lishi mumkin);

sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to‘g‘risida ma‘lumotnoma (Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan olingan);

nomzod tomonidan to‘ldirilgan “Rezyume” (ma‘lumotnoma, obyektivka) nusxasi (Yo‘riqnomaga 3-ilova).

10. Tekshiruvni o‘tkazuvchi xodim nomzodlarni tekshirishda quyidagi ma‘lumot manbalaridan foydalanishi mumkin:

Yo‘riqnomaning 9-bandida keltirilgan hujjatlar;

“hrm.argos.uz” elektron platformasi;

“Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi axborot tizimi - <http://registr.stat.uz/>;

O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma‘lumotlar portali - <https://data.egov.uz/>

Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestri - <https://davreestr.uz/uz/>;

Milliy geoaxborot portali - <https://open.ngis.uz/>.

Mazkur ro‘yxat tavsiyaviy bo‘lib, tekshiruvni o‘tkazuvchi xodim boshqa ma‘lumotlar manbalaridan ham foydalanishi mumkin.

11. Nomzodlarni tekshirish ma‘lumotlarni to‘plash va ularni nomzodning “Rezyume”sidagi ma‘lumotlarga solish orqali Yo‘riqnomaning maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va obyektivlik talablariga javob berishi kerak.

Taqdim etilgan ma‘lumotlarni tekshirish uchun tegishli davlat muassasalari, oldingi ish joylari, o‘quv yurtlari va hokazolarga rasmiy so‘rovnomalar yuborilishiga yo‘l qo‘yiladi.

12. Nomzodning sudlanganligi holatini tekshirish va boshqa ma‘lumotlarni aniqlash uchun ochiq axborot manbalaridan foydalanish hamda huquqni muhofaza qilish organlariga rasmiy so‘rovlar yuborilishi mumkin.

13. Tekshirishni amalga oshiruvchi xodim nomzod bilan suhbat o‘tkazishga, undan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha tushuntirishlar va qo‘shimchalar so‘rashga haqli.

14. Quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha nomzodlarni tekshirish amalga oshiriladi:

nomzod talabgor bo‘lgan lavozimni egallash uchun to‘sqinlik qilish mumkin bo‘lgan sudlanganlik faktlari mavjudligi haqidagi ma‘lumotlar;

rahbarlik lavozimlarini egallashi uchun taqiqlar yo'qligi;

nomzod haqida salbiy va qadsizlantiruvchi, shu jumladan uning korrupsiya, firibgarlik va boshqa qonunga qarshi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi;

avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyalar yo'qligi;

nomzod talabgor lavozim bo'yicha unga rahbarlik qiluvchi yoki bo'ysunuvida yoxud nazoratida uning yaqin qarindoshlarining faoliyat yuritmaslik holati;

nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlarining yo'qligi;

nomzodning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etish, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo'lish, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarish, aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalariga qonunchilikda belgilangan talablar doirasidan ko'p miqdorda egalik qilish holati;

Davlat aktivlari agentligi va (yoki) uning tizimidagi tashkilotlar nazorati ostidagi yoki u bilan aloqalar va manfaatlarga ega bo'lgan tashkilotlardagi ulushlar, paylar va aksiyalar bevosita yoki vakillar orqali egalik qilish holati;

muqaddam Davlat aktivlari agentligi va (yoki) uning tizimidagi tashkilotlarda ishlaganlik holati;

nomzodga nisbatan boshqa xavf-xatar ko'rsatkichlarining mavjudligi holati (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma'lumotlar).

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv ma'lumotlar mavjudligiga ko'ra o'tkaziladi.

15. Tekshirishni amalga oshiruvchi xodim tomonidan Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan hisobot ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha tuziladi hamda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas'ul tuzilma yuboriladi.

Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan hisobotning 3-bo'limi 3.1, 3.2, 3.3 yoki 3.4-bandlaridagi savollariga bir va undan ortiq xavf ko'rsatkichlari mavjud bo'lganda ("Ha" javoblar) tekshirishni amalga oshiruvchi xodim nomzodni tekshirish yakunlari bo'yicha salbiy xulosa taqdim etadi.

Ushbu Hisobotning 3.5, 3.6, 3.7 yoki 3.8-bandlaridagi savollarning kamida biriga bir yoki bir nechta xavf ko'rsatkichlari ("Ha" javoblari) mavjud bo'lsa, tekshirishni amalga oshiruvchi xodim vaziyatni korrupsiya xavflarining mavjudligi yoki yo'qligi jihatidan baholashi kerak.

Korrupsiya xavfi mavjud bo'lmaganda, tekshirishni amalga oshiruvchi xodim nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha ijobiy xulosa taqdim etadi.

Korrupsiya xavfi mavjud bo'lganda esa, tekshirishni amalga oshiruvchi xodim ularni kamaytirish chora-tadbirlarini taklif qiladi yoki bunday xavflarni kamaytirish

imkoni mavjud bo'lmagan taqdirda, nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa taqdim etadi.

16. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalari haqidagi ma'lumotlarni ushbu Yo'riqnomaning 2-ilovasida keltirilgan Nomzodlarni tekshirish reyestriga kiritiladi.

17. Nomzodlarni tekshirish reyestri quyidagilar tomonidan yuritiladi:

a) Davlat aktivlari agentligining markaziy apparati, "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJ va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan;

b) Davlat aktivlari agentligi va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining hududiy boshqarmalari, Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi hamda Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasida inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linma (xodim) tomonidan.

Nomzodlarni tekshirish reyestri elektron shaklda yuritilishi ham mumkin.

18. Ijobiy xulosa berilgan nomzodni Davlat aktivlari agentligika ishga qabul qilish masalasi amaldagi qonunchilik talablari va Davlat aktivlari agentligining ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

19. Salbiy xulosaga ega nomzodni ishga qabul qilish masalasi tegishliligidan Davlat aktivlari agentligi direktori, hududiy boshqarma boshlig'i yoki idoraviy mansub tuzilma rahbari tomonidan hal etiladi.

20. Tekshirishni amalga oshiruvchi xodim tomonidan tekshiruv natijalari bo'yicha korrupsion xavflar aniqlangan holda ularni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif qilinib, nomzodni ishga qabul qilish holatlarida, bunday xodimning bevosita rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali bajarilishini nazorat qilish uchun mas'uldir.

3-bob. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddati

21. Nomzodni tekshirish natijalari (shu jumladan, tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot va boshqa aloqador hujjatlar) yuzasidan hisobot "xizmat doirasida foydalanish uchun" tarzidagi hujjat hisoblanadi hamda nomzodni tekshirish va tanlash jarayonida ishtirok etmaydigan xodimlarga va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

22. Nomzodlarni tekshirish reyestri va Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan hisobotlarni ko'rish huquqiga quyidagilar ega:

a) Davlat aktivlari agentligi tizimi bo'yicha: Davlat aktivlari agentligi direktori, uning o'rinbosarlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleks bo'limi hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi xodimlari;

b) “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” AJ bo‘yicha: jamiyat direktori, uning o‘rinbosarlari, Komplaens-nazorat xizmati hamda Inson resurslari bilan ishlash bo‘limi xodimlari;

d) Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi tizimi bo‘yicha: Markaz direktori, uning o‘rinbosarlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi hamda Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi xodimlari;

e) Davlat aktivlari agentligi va Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining hududiy boshqarmalari, Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi hamda Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi bo‘yicha: mazkur tashkilotlar rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari hamda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishga mas’ul tuzilma xodimlari.

O‘z lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun nomzodlarni tekshirishga oid ma’lumotlarni olishi zarur bo‘lgan boshqa xodimlar tegishliligiga ko‘ra tashkilot rahbarining yozma roziligini olishi kerak.

23. Nomzod ishga qabul qilinganda Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan hisobot xodimning shaxsiy yig‘ma jild - hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlar davomida saqlanadi.

Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan hisobot nusxasi, shuningdek, tasdiqlovchi/unga hamroh hujjatlar va ma’lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko‘chirmalar, vakolatli muassasalarga yuborilgan so‘rovnomalar va olingan javoblar va boshqalar) tekshiruvni amalga oshirgan bo‘linma (xodim)da uch yil davomida saqlanadi.

24. Ishga joylashmagan nomzodlarni tekshirishga oid ma’lumotlar (tekshirish o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hisobot, unga ilova hujjatlar va ma’lumotlar), agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tekshiruvni amalga oshirgan bo‘linma (xodim)da bir yil davomida saqlanadi.

25. Agar nomzod Davlat aktivlari agentligining aynan o‘sha tizim tashkilotidagi boshqa lavozim(lar)ga talabgor bo‘lsa hamda ushbu nomzod tekshirilganiga bir yil vaqt o‘tmagan bo‘lsa, ushbu nomzodni qayta tekshirish talab etilmaydi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

26. Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining aloqador qonunchilik hujjatlari o‘zgarganda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zaruriyati tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqiladi va o‘zgartiriladi.

27. Yo‘riqnoma qoidalarini buzgan xodimlar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Davlat aktivlari agentligining ichki hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini
boshqarish agentligi tizimida ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha
yo'riqnomaga
1-ilova

Nomzodni tekshirish natijalari yuzasidan HISOBOT

____-son

____-_____-yil

1.	Asosiy ma'lumotlar	
1.1.	Nomzodning F.I.Sh.	
1.2.	Tug'ilgan vaqti	
1.3.	Nomzodning JSHSHIR	
1.4.	Yashash manzili	
1.5.	Telefon raqami	
1.6.	Vakant lavozim	
1.7.	Tarkibiy tuzilma	
2.	Ish tajribasi	
2.1.	Avvalgi ish joyi (teskari xronologik tartibda), lavozimi	
2.2.	Avvalgi ish joyidan olingan salbiy baholar mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo'q Izohlar: Manbalari:
3.	Tekshirish natijalari	
3.1.	Ushbu Yo'riqnomaning 9-bandida ko'zda tutilgan to'liq hujjatlar paketi olinganligi	☐ Ha ☐ Yo'q Yetishmayotgan hujjatlar: Hujjatlar yo'qligining sabablari:
3.2.	Nomzoddan olingan hujjatlar, shu jumladan "Rezyume"dagi ma'lumotlarda ishonchsizlik belgilari va o'zlari haqlaridagi ayrim ma'lumotlarni yashirish va/yoki soxtalashtirish alomatlarining mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo'q Izohlar: Manbalari:

3.3.	Nomzod talabgor bo'lgan lavozimni egallash uchun to'sqinlik qilish mumkin bo'lgan sudlanganlik faktlari mavjudligi	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, asosni ko'rsating) Izohlar: Manbalari:
3.4.	Rahbarlik lavozimlarini egallashi uchun taqiqlar mavjudligi (<i>nomzod rahbarlik lavozimiga talabgor bo'lsa</i>)	☐ Ha	☐ Yo'q	Izohlar: Manbalari:
3.5.	Nomzod va uning yaqin qarindoshlarining mansabdor shaxslar bilan bog'liqlik belgilarining mavjudligi:	☐ Ha	☐ Yo'q	
	1) nomzod hozirgi vaqtda (o'rindoshlik asosida) mansabdor shaxs lavozimini egallagan	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, u holda ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko'rsating, shuningdek Davlat aktivlari agentligida ishlash uchun tegishli ruxsatnomaning mavjudligini tekshirish) Izohlar: Manbalari:
	2) nomzod sobiq mansabdor shaxs bo'lgan	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, u holda ish davri, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko'rsating) Izohlar: Manbalari:
	3) nomzodning yaqin qarindoshlari amaldagi mansabdor shaxslar hisoblanadilar	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, u holda F.I.Sh., qarindoshlik darajasi, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko'rsating) Izohlar: Manbalari:
3.6.	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlarining mavjudligi	☐ Ha	☐ Yo'q	
	1) nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi va/yoki qaror qabul qilish bilan bog'liq lavozimni egallaganlar, va/yoki boshqa kompaniyalarning boshqaruv organlari tarkibiga kiradilar	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, u holda F.I.Sh., qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), tashkilot nomi, lavozimi) Izohlar: Manbalari:
	2) Nomzodning yaqin qarindoshlari Davlat aktivlari agentligi tizimi tashkilotlarining xodimi	☐ Ha	☐ Yo'q	(agar ha bo'lsa, u holda F.I.Sh., qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), tashkilot nomi, lavozimi) Izohlar: Manbalari:
	3) nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday tashkilotning	☐ Ha	☐ Yo'q	

ustav kapitalidagi aksiyalari yoki o'z ulushlariga ega yoki Respublika fond birjasi yoki boshqa har qanday fond birjasida erkin muomalada bo'lgan har qanday tashkilotning qimmatli qog'ozlarining qonunchilikda belgilangan talablar doirasidan ko'p miqdorda yoki boshqa kompaniyalarning faoliyat natijalarida boshqa turdagi shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan, investitsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan) ega		(agar ha bo'lsa, u holda F.I.Sh., qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), tashkilot nomi, lavozimi)	
		Izohlar: Manbalari:	
4) boshqa belgilari		☐ Ha	☐ Yo'q
		Izohlar: Manbalari:	
3.7	Nomzod haqida salbiy va qadrsizlantiruvchi, shu jumladan uning korrupsiya, firibgarlik va boshqa qonunga qarshi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar mavjudligi	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izohlar: Manbalari:	
	Nomzodga nisbatan boshqa xavf-xatar ko'rsatkichlari (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma'lumotlar, odob-axloq qoidalariga rioya etishi, oilaviy sharoiti, surunkali yoki og'ir kechgan (kechadigan) kasalliklarga chalinganligi)	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izohlar: Manbalari:	
3.8	Boshqa ma'lumotlar (shu jumladan, intervyu – suhbat natijalari (o'tkazilganda))	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izohlar: Manbalari:	
4.	Korrupsiya xavflarini tahlil qilish (3.5, 3.6 va/yoki 3.7-bandlarga "ha" javobi berilganda) va ularni kamaytirish choralari bo'yicha tavsiyalar		
5.	Xulosa		

Bandlar bo'yicha	Ha / Yo'q	Izohlar
3.1, 3.2, 3.3 va 3.4- bandlarida xavf ko'rsatkichlarining mavjudligi		Ko'rsatilgan toifada hech bo'lmaganda bitta xavf mavjud bo'lsa ham, salbiy xulosa
3.5, 3.6, 3.7 yoki 3.8-bandlarida xavf ko'rsatkichlarining mavjudligi		Korrupsiya xavfi yuqori bo'lsa va ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishning imkoniyati bo'lmasa salbiy xulosa
YAKUNIY NATIJA	(salbiy xulosa/ijobiy xulosa)	
TAVSIYALAR (aniqlangan xavf-xatarlarni hisobga olgan holda)		

Tekshirishni amalga oshirgan xodim:

____-____ 20____-y
(sana)

(imzo)

(F.I.Sh.)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat
aktivlarini boshqarish agentligi tizimida
ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni
tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga
2-ilova

_____da nomzodlarni tekshirish
REYESTRI

____.____.20__-yil holatiga

T/r	Tekshirish uchun so‘rovnoma olish sanasi	Nomzod F.I.Sh	Bo‘sh lavozim nomi	Tarkibiy bo‘linma	Ijrochining F.I.Sh.	Nomzodni tekshirish bo‘yicha hisobot raqami va sanasi	Tekshirish natijasi (ijobiy/salbiy /xavflar aniqlandi)	Izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini
boshqarish agentligi tizimida ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha
yo'riqnomaga
3-ilova

NOMZOD REZYUMESI

SHAXSIY MA'LUMOTLAR

F.I.Sh.:

Tug'ilgan sana:
(sana/oy/yil)

Jinsi:

erkak/ayol

Oilaviy ahvoli:

Millati:

Fuqaroligi:

Ro'yxatdan o'tgan manzili:

Turar joy manzili:

**Siz xalq deputati, markaziy, respublika,
viloyat, shahar, tuman yoki boshqa saylov
organlarining a'zosi hisoblanasizmi
(to'liq ko'rsating):**

**Siz davlat mukofotlariga egamisiz
(qaysilari):**

Telefon raqami:

Elektron pochta manzili:

MA'LUMOTI

Ma'lumot darajasi:

O'rta, o'rta-maxsus, oliy, boshqalari

Ilmiy daraja:

Ilmiy unvoni:

Sana		O'quv yurti (nomi, joylashgan yeri)	Mutaxassislik	Daraja
Kirgan (oy / yil)	Tugatgan (oy / yil)			

Qo'shimcha ma'lumoti (treninglar, kurslar va boshqalar):

Sana		Nomi (trening, kurs va boshqalar)	Sertifikat
Kirgan (oy/yil)	Tugatgan (oy/yil)		

ISH TAJRIBASI

Sana		Tashkilotning nomi	Lavozimi
Boshlanishi (oy/yil)	Yakunlanishi (oy/yil)		

Nomzod va uning yaqin qarindoshlari tomonidan yuridik shaxslarning aksiyalari va ulushlariga egalik qilish to'g'risidagi MA'LUMOTLAR

Siz yoki Sizning yaqin qarindoshlaringiz har qanday tashkilotning ulushlari yoki ommaviy muomalada bo'lmagan aksiylari (ulushga / egalik foiziga bog'liq bo'lmagan holda) yoki Respublika fond birjasi yoki boshqa har qanday fond birjada ommaviy muomalada bo'lgan har qanday tashkilotning 10 foiz yoki undan ko'p qimmatli qog'ozlariga egalik qilsizmi?

Ha / Yo'q

***yaqin qarindoshlar** — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Agar ha bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalni to'ldiring:

T/r	Ulush yoki aksiylar egasining F.I.Sh.	Shaxs ulushga ega tashkilotning nomi	STIR	Ishtirok ulushi /egalik %

TILLARNI BILISHI	
Tillar	Bilish darajasi (yo‘q/boshlang‘ich/o‘rta/ yaxshi/a‘lo)
O‘zbek tili	
Rus tili	
Ingliz tili	

KOMPYUTER SAVODXONLIGI	
Qaysi dasturlarni biladi	Bilish darajasi

Xizmat safarlariga munosabati:	Mumkin/Ma’qul emas
Haydovchilik guvohnomasi:	HA <i>(toifasini)</i> /YO‘Q
Harbiy ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi ma’lumot:	
Sudlan(ma)ganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar:	Ega emasman/Ha, lekin bekor qilingan/Egaman
Tavsiyalar:	
Qo‘shimcha ma’lumotlar (odob-axloq qoidalariga rioya etishi, oilaviy sharoiti, surunkali yoki og‘ir kechgan (kechadigan) kasalliklarga chalinganligi):	
Ishga chiqish mumkin bo‘lgan sana	

Yaqin qarindoshlar to'g'risidagi MA'LUMOTLAR

Qarindoshlik darajasi	F.I.Sh.	Tugʻilgan sanasi va joyi	Ish joyi va lavozimi	Yashash joyi

***yaqin qarindoshlar** — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Men, (FISH) _____, yuqoridagi jadvalda keltirilganlardan tashqari, boshqa yaqin qarindoshlarga ega emasligimni tasdiqlayman

Men tomonimdan taqdim etilgan ma’lumotlar to’liq ishonchli ekanligini tasdiqlayman, ma’lumotlardan foydalanish va tekshirilishiga roziligimni bildiraman.

_____-_____-20_____-y. _____
(To‘ldirilgan sana) Imzo FISH